




O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy gazetasi



Ulug‘ bobokalonlarimizga EHTIROM

Har yili Vatanimizda 9-fevral – buyuk shoir va mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy tavallud sanasi mamlakatimizda bayramona tarzda nishonlanishi yaxshi an'anaga aylangan. Joriy yilda ham ushbu qutlug' sana yana-da ko'tarinkilik, o'zgacha shukuh bilan, adabiyot, ma'naviyat, ilm-ma'rifat, do'stlik ayomi sifatida o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda ulug‘ bobokalonimizga ehtirom ko'rsatish, asarlarini o'rganish, uni dunyoda keng targ'ib etishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida buyuk shoir tavalludining 581 yilligiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy tadbirda mamlakatimiz ilmfan namoyondalari, ziyolilar, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, adabiyotshunos olimlar, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari, shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan “O'zbekiston xalq artisti”, “O'zbekiston xalq hofizi”, “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist” faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalari ham ishtirok etdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'zbek adabiyotining so'nmas siymosi, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag'ishlangan “Navosoz ko'ngil sohibi” nomli ma'naviy-marifiy tadbir tashkil etildi.

Professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan ushbu tadbirda institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'z olib, talaba-yoshlarga Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati, uning badiiy-ilmiy merosi, mamlakatimizda ulug‘ shoirga ko'rsatilayotgan ehtirom, shoir asarlarining navqiron avlod tafakkurini boyitishdagi o'rni haqida so'zlab berdi.

– Bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda, har bir pedagog xodim yoshlarning ta'lim tarbiyasi, madaniyati, darslardagi ishtiroki, vaqtida qatnashishi, o'g'il-qizlarni o'z ustilarida tinimsiz izlanishlar olib borishlari kabi masalalarga jiddiy ahamiyat qaratishi zarur, – dedi institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev. – Milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish, ulug‘ ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganish hamda targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Xususan, Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat xalqimizning, balki insoniyatning bebaho ma'naviy xazinasidir. ➡

Tadbirda mamlakatimizda milliy adabiyotimizga, ta'lim-tarbiyaga e'tibor ko'rsatish, ustoz-muallimlar mehnatini ardoqlash, adabiyot, san'at va madaniyatni yanada ravnaq toptirish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar yangicha ruh, o'zgacha shiddat bilan olib borilayotgani ta'kidlandi. She'riyat mulkining sultoni haykali poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi. Alisher Navoiy asarlaridan namunalar o'qildi.

Darhaqiqat, ulug‘ mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosi asrlar osha butun bashariyatni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat, mehr-muruvvat ziyosini taratib kelmoqda.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimizning barcha go'shalarida, bilim dargohlarida, mahallalarda davom etdi.

Joriy yilning 14-fevral kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakili, buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, olim va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligi munosabati bilan “Qalbidan mangu yashar buyuk siymolar” nomli ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy tadbir tashkil etildi.

Professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishchi xodimlar, talabalar qatnashgan tadbirda institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'z olib, talaba-yoshlarga Bobur hayoti va ijodiy faoliyati, uning badiiy-ilmiy merosi, mamlakatimizda bu ulug‘ insonga yuksak ehtirom ko'rsatilayotgani, shoir asarlarining navqiron avlod tarbiyasida tutgan ahamiyati xususida muhim fikrlarni aytib o'tdi.

– Mamlakatimizda milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish, ulug‘ ajdodlarimizning o'lmas merosini o'rganish hamda targ'ib etish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, – dedi professor Ibrohim Yo'ldoshev. ➡

MO'YNOQDA “QO'QON BOG'I”

Ibrohim YO'LDOSHEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

Barchamizga ma'lumki, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 23 fevral kuni Mo'ynoq shahriga keldi. Mo'ynoqlik yoshullilar, mahalla raislari, hokim yordamchilari va yoshlar bilan uchrashdi. Bu yerdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Shu o'rinda aytish lozimki, Prezidentimiz Mo'ynoqqa ikki marta – 2018 va 2019-yillarda tashrif buyurgan. Bu hududni rivojlantirish bo'yicha ikkita qaror qabul qilinib, manzilli dasturlar amalga oshirilgan. Chunki mo'ynoqliklarning hayoti, sharoitlariga davlatimiz rahbarining e'tibori boshqacha.



– Oxirgi besh yilda ko'p narsani o'rgandik, ilgari ishonilmagan narsalarga ishonidik. Men birinchi kelganimda “madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi” degandim. Shunday bo'layapti. Mana shu aeroport ham bir misol. Endi Toshkent – Mo'ynoq – Nukus aviaqatnovi yo'lga qo'yiladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Jamoatchilik vakillari hududdagi muhim masalalar bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Prezidentimiz ularni qo'llab-quvvatlab, mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan birga xizmat turlarini kengaytirish, xususan, ko'ngilochar o'yinlar uchun soliq imtiyozlari berish zarurligini ta'kidladi. Bu ichki turizm rivojiga, ish o'rnlari ochilishiga xizmat qiladi.

– Orolbo'yida ahvol yomon deb ko'pchilik gapiradi. Lekin hamma ham bu yerga kelib ko'rmagan. Orolning havosidan nafas olishi, sharoitni ko'rib, adolati baho berishi uchun bu yerga butun respublikadan rahbarlarni yubordim. Qoraqalpog'iston rivojiga katta mablag' yo'naltiramiz, – dedi Prezidentimiz.

Mo'ynoq tumaniga Toshkent viloyati birkirilgan. Uchrashuvda ushbu viloyat tadbirkorlari tomonidan Mo'ynoq tumanida amalga oshiriladigan ishlar haqida aholi vakillari oldida taqdimot o'tkazildi. Qayd etilganidek, bu yerda istirohat bog'i quriladi, qo'shimcha quvur tortib kelinadi. Keksalar sanatoriylariga, bolalar oromgohlariga yuboriladi. Davlatimiz rahbari aholi salomatligi masalasiga alohida e'tibor qaratib, bu yerga kelib ishlaydigan shifokorlarga oylik ustamalar berish, uy bilan ta'minlash muhimligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, Qoraqalpog'istonning qay bir tumaniga bormang, ulkan yangilanishlarga guvoh bo'lasiz. Mo'ynoq esa o'zining yangidan tug'ilish davrini boshdan o'tkazmoqda. Yangi hayot boshlandi. Odamlarning yuragida jo'sh bor, kuch-shijoat bor. Navoiy bobomiz yozganlaridek:

*Odamiy ersang demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.* ➡

2021-yili “O'zbekiston” nashriyotidan Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston strategiyasi” nomli 464 betdan iborat kitobi 10.000 nusxada nashr etildi.

“YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI” KITABI VA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR

Ushbu asar xalqimizning uyg'onish davri asoslarini yaratish bilan bog'liq ezgu orzu-intilishlari, ularni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifalarni atroflicha tahlil etishga xizmat qiladi. “Yangi O'zbekiston strategiyasi”, “Xalqparvar davlat”, “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish”, “Adolatli ijtimoiy siyosat”, “Ma'naviy taraqqiyot”, “Xavfsizlik va tashqi siyosat”, “O'zbekiston va umumbashariy muammolar” kabi 7 ta bo'limning har birida mamlakatimizdagi ulkan o'zgarishlar, olib

borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida so'z yuritilgan. Asarning har bir bo'limida barcha yo'nalishlar bo'yicha erishilgan samarali natijalar hamda kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan maqsadlar haqidagi fikr-mulohazalar har bir fuqaroni ezgu tashabbuslar bilan ishlashga undaydi, yangi, ilg'or g'oyalarni ilgari surishga, o'zi uchun, ona yurti, xalqi uchun yanada serg'ayrat bo'lib harakat qilishga chorlaydi. ➡

TURKIY XALQLAR MADANIYATI TARIXI

Turkiy xalqlar madaniyati va davlatchilik an'anasining xalqaro maydondagi o'rni va shu xalqning madaniy merosini tadqiq etish, milliy g'urur hamda qadriyatlarini anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida milliy o'zlikni anglash mohiyatini mukammal tushuntirish, madaniy manbalarimizning jahon tamadduni rivojidadagi munosib o'rni dalillash, keyingi davr turkiy va g'ayri turkiy sulolalari davlatchiligiga kuchli ta'sir etgan xalqlarimiz merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan turli moddiy-ma'naviy yodgorliklarni tadqiq etish ishlarini qo'llab-quvvatlash, teran ildizi qadim moziyga borib taqaladigan o'zbek tilining mavqeyini yuqori darajaga olib chiqish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 11–12-noyabr kunlari Turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashining Turkiyadagi sammitidagi ishtiroki va nutqi ham soha rivoji uchun katta ahamiyatga egadir. Qolaversa, Respublikamizda turkologiya sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar va izlanishlarga keng yo'l ochilib, har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqimiz tomonidan yaratilgan va asrlar mobaynida ko'z qorachig'iday saqlab kelingan milliy qadriyatlarini har tomonlama, xolisona va keng ko'lamli tadqiq etish imkonini tug'ilgan shu kunlarda biz amalga oshirayotgan tadqiqot ishi ham yuqoridagi jarayonlarga muvofiq tarzda turkologik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi bir qadamdir. Buyuk madaniyatimiz ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. ➡



Ulug' bobokalonlarimizga EHTIROM

Buyuk mutafakkirning serqirra ijodi asrlar mobaynida insoniyatni hamjihatlikka, ilm-ma'rifatga chorlab, xalqimiz uchun cheksiz faxr-iftixor timsoli bo'lib kelmoqda.

Ta'kidlandiki, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'zining boy ma'naviy merosi, shoh asarlari, nodir devonlari, betakror g'azal va dostonlari bilan bashariyat adabiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Alloma qalamiga mansub, yuksak mahorat va betakror so'z san'ati ohangida yaratilgan, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bebaho ijod namunalarini asrlar osha o'z mazmun va sayqalini yo'qotmay, ulkan ma'naviy meros va adabiyotimiz gultojiga aylangan.

Xondamirning "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor" asarida XV–XVI asrlardagi ijtimoiy-madaniy tarix, xususan, bevosita Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq juda qimmatli, muhim ahamiyatli ma'lumotlar taqdim etilgan, – dedi professor Ibrohim Yo'ldoshev. – E'tirof etilishicha, Hirotda boshqa san'at turlari qatorida musiqa va qo'shiqchilik madaniyati ham nihoyatda taraqqiy etgan. Buni biz Xondamirning "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-axyor" asarida to'liq kuzatishimiz mumkin. Xondamir o'z asarida, Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan kuy va qo'shiq ijrochilariga atab alohida sahifalar ajratgan. Ularda ta'rif berilgan har bir san'atkor o'sha davrning mashhur va mahoratli ustalari bo'lgan. Alisher Navoiy ham musiqa ijrosi bo'yicha juda yuksak mahorat sohibi bo'lgan. U qonun va udni yuksak iste'dod bilan chala olgan. Shu boisdan Navoiy saroy sozandalarining musiqa borasidagi bilim va mahoratlari muttasil ravishda yuksaltirib borishlarida har tomonlama dastak ko'rsatgan. Xususan, Alisher Navoiyning das-tagi va homiyligi ostida Husayn Boyqaro saroyida faoliyat ko'rsatgan Ustod Sayyid

Ahmad g'ijjak ijrosida eng yetuk san'atkor sifatida dovrug' qozongan bo'lsa, Ustod Shohquli ham g'ijjakda mahorat bilan o'ynagan. Navoiy o'zining sevimli shogirdi Shohquliga uning bolaligidan g'amxo'rlik ko'rsatadi. Ustod Shohquli keyinchalik ud, qo'biz kabi musiqiy asboblarda ham mahorat bilan kuy ijro eta oladigan san'atkor darajasiga ko'tariladi. Asarda yana ud va qonun ustasi Ustod Husayn, o'z davrining nay ustasi Ustod Shayh Nayi, musiqa san'ati bobida tengi yo'q mahorat egasi Mavlono Alishoh, mahorati nay ijrochisi Mavlono Sulton Muhammad Xandon, musiqa borasida tengsiz san'atkor Xo'ja Abdulqodir go'yanda kabi san'atkorlarning nomlari alohida tilga olinadi. Xondamirning mazkur asari Alisher Navoiyning kuy va qo'shiq san'ati homiysi bo'lganligi, shuningdek, XV–XVI asrlardagi keng tarqalgan asosiy cholg'ulardan qonun, ud, qo'biz, g'ijjak, nay kabilar haqida qimmatli ma'lumotlar berishi bilan bebahodir.

Shu o'rinda aytish lozimki, Navoiy ijodiga e'tibor qaratar ekanmiz, bobomiz o'z ijodida juda ko'p betakror so'zdan keng foydalangani, hassos shoir yuksak ijodiy mahorat va ulkan so'z boyligiga ega bo'lganiga amin bo'lamiz. Buyuk ajdodimiz so'zlariga bastalangan badiiy barkamol qo'shiqlar tinglovchilarning estetik didini yuksaltirish, musiqiy saviyasini oshirish, ona tilimizga yanada ko'proq hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Tadbir davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari ishtirokidagi musiqiy dastur yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Chin insoniy fazilatlar, ezgulik, odamiylik, mehr va sadoqatni tarannum etuvchi qo'shiqlar, jozibali raqslar ijro qilindi.

* * *

– Ma'lumki, fevral oyida o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalari Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlari keng nishonlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, Navoiy va Bobur munosabatlari xususida turli ilmiy qarashlar mavjud. Bobur Navoiy bilan bevosita uchrashmagan bo'lsada, ular orasida iliq munosabat bo'lgan. Bobur o'z asarlarida Alisher Navoiyni yigirmaga yaqin o'rinda tilga olgan. "Boburnoma"da keltirilishicha, Bobur uchun ustozlari Alisher Navoiy bilan shaxsan suhbatdosh bo'lmagan katta armon bo'ladi. U 1506 yilda Hirotda kelganida Navoiy vafot etgan edi. U Alisher Navoiy yashagan uyni, u qurdirgan imoratlarini va albatta, uning maqbarasini ziyorat qiladi. Bobur Husayn Boyqaroning o'g'illari Badiuzzamon Mirzo hamda Muzaffar Mirzolar tomonidan hurmat ramzi sifatida o'ziga ko'rsatilgan shohona joyda istiqomat qilmasdan, Hirotdan ketgunga qadar Navoiy yashab ijod qilgan uyda turadi. Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkardadir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari sifatida she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

TURKIY XALQLAR MADANIYATI TARIXI

Xususan, qadimgi yozma yodgorliklarni tadqiq qilar ekanmiz, ming yillar oldin bitilgan ota-bobolarimiz yaratgan o'lmas asarlar bunga yorqin misol bo'ladi. Fanda ma'lumki, turkiy millatlar va elatlar o'zlarining boy xalq og'zaki ijodi namunalarini va yozma yodgorliklarining qadimiyligi bilan mashhurdir. Dastlabki yozma manbalarning "Urxun-Enasoy" bitigrlari nomi bilan Markaziy Osiyo, Sibir va Mo'g'uliston zaminlaridan topilganligi tarixdan ma'lum. Undan keyingi davrda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari ham qimmatli jihatidan umumturkiy boyligimizdir. Bu asarni har tomonlama tadqiq etish turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlari, so'z boyligi, adabiy merosini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Asar turkiylarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolar, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlar, o'simliklar nomlari, astronomik terminlar, xalq taqvimi, oy-hafta, kunlar, jug'rofik obyekt, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, ma'danlar, minerallar nomlari, harbiy ijtimoiy-siyosiy terminlar, turli tarixiy va afsonaviy qahramonlarning ismlari, sport o'yinlari va boshqa sohalarga xos so'z va istilohlarga boyligi bilan hozirgi zamon kishisiga o'sha davrda yashagan turkiylarning hayot

tarzihaqida ma'lumot beruvchi bebaho manba hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariyning tushuncha va atamalarga oid ilmiy ijodkorligi turkiy tillarning o'ziga xos hodisalarini ifodalashda ko'rinadi. Bu borada u uch yo'lni tanlaydi. Birinchisi, arabiy so'zlarga turkiy ma'no berish, ikkinchisi mavjud atamaga sifat orttirish, uchinchisi yuqoridagi ikki yo'ldan foydalanib bo'lmaydigan holda yangi atama yaratish. Lug'atshunos va tilshunos, etnograf va folklorchi, tarixchi va geograf Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari qorxoniyalar davrida yashagan turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, yag'molar va h.k. qavmlar qirg'izlar haqidagi tarixiy, jug'rofiy ma'lumotlari bilan birga bu tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir.

"Devonu lug'otit turk" dagi folklor unsurlari xalq etimologiyasi, doston, rivoyat, topishmoq, matal, xalq she'riyati, e'tiqodlari, urf-odatlari, an'analari, xalq tabobati, xalq taqvimi, o'yin, kiyim-kechak, bezak, xalq og'zaki ijodi kabilardir. Ushbu elementlarning ba'zilari hali ham mavjud. Bu jihatdan "Devonu lug'otit turk" madaniy boyligidir.

Ma'rufjon DO'STMURODOV,
O'zDSMI kengash kotibi, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

MO'YNOQDA "QO'QON BOG'I"

Navoiy hazratlari demoqchilarki, kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema. Xalqimiz o'zining qiyosiz mehr-oqibati, og'ir damlarda ham faqat o'zini, shaxsiy farog'atini emas, yon-atrofidaqilarni, do'st-yoronnii, mehr-muruvvatga muhtojlarni ham o'ylab ish tutishi, ularga saxovat ko'rsatishi bilan dong qozongan. Yaqin o'tmishdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. O'yaylik, tafakkur qilaylik azizlar, bugun Prezidentimizning ezgu maqsadlari zamirida ham Navoiy bobomiz bundan kam emas, besh asrdan ko'proq muddat avval o'rta tashlagan o'lmas g'oyalari yotibdi. El-ulus dardi bilan yashash, odamlarni rozi qilish, ularning mushkulini yechish, rahbarlarning xalq ichiga kirib, dardlariga malham bo'lmo'gi, hamma hammasi bugungi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligi isboti, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yana Hazrat Navoiydan o'qiymiz:
Tux(i)m yerga kirib chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.

Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu'!
Pilla qurticha himmating yo'qmu'!

Navoiy demoqdaki, oddiy lolaqizg'aldoqning ko'z ilg'amas urug'i yerga tushib, ne zahmatlar bilan unib chiqib, umri qisqa bo'lsa ham lola ochdi, gulladi. Ipak qurti zig'irdek davridan boshlab tinmay mehnat qilib, ipak pillani yaratdi, lekin ne-ne mashaqqatli mehnati evaziga yaratgan pillasidan qurt uchun hech bir manfaat bo'lmaydi. Oxirida qurt o'zi yaratgan pillaning ichida xalok bo'ladi yoki kapalak bo'lib uchib ketadi. Ey, inson avlodi, nahotki, senda lola urug'ichalik g'ayrat bo'lmasa?! Pilla qurtichalik himmat bo'lmasa?!

Ana buyuk Navoiyning hayot falsafasi! Mana shu to'rt qatorda insonning dunyoga kelib, umri nihoyasigacha bo'lgan hayot mazmuni to'liq aks etgan. Yangi bog'lar, gulzorlar yaratish, borlarini mehr bilan parvarishlash, ariq-zovurlarni tozalash, yolg'iz, nogironligi bo'lgan shaxslar va bemorlarni xabar olish, bu ishga yoshlarni, aziz farzandlarni ham jalb etish naqadar savobli ishdir.

Muhtaram Prezidentimizning asosiy maqsadlari ham Navoiy g'oyalari bilan uyg'ulashadi. Prezidentimizning Prezidentlik davridan boshlab, to shu kungacha Orol mintaqasi eng e'tibordagi masala bo'lib kelmoqdaki, bunga barchamiz guvohmiz.

Shu o'rinda qayd etish joizki, Prezidentimizning taklifi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75 sessiyasida Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya qabul qilingan. Unda endi Orolbo'yi muammolari faqatgina O'zbekiston yoki Qozog'istonning muammolari bo'lib qolmasdan, balki jahon ahlini tashvishga, xavotirga solib turgan muammoga aylangani rasman tasdiqlangani, qolaversa, bu global masalada hamjihatlik nihoyatda zarur ekani alohida ta'kidlangan edi. Yana bir e'tiborli jihati, Orolbo'yi mintaqasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" maqomi taqdim etilgan birinchi mintaq bo'ldi. Qarangki, Orol muammosi bir yoki ikkita mintaq ahlini emas, aksincha, butun insoniyatni tashvishga solayotgan bir paytda biz – shu zaminda tug'ilgan, taqdirimiz bog'langan hudud boshidan kechayotgan ko'rgiliklarga tomoshabin bo'lib qarab tursak, insofdan bo'larmidi?!

2018-yilda O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining Qo'qon shahridagi Farg'ona mintaqaviy filiali professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlari tomonidan Orolbo'yi hududi, aniqrog'i, Mo'ynoq tumanida bog' yaratishi rejalashtirildi. Vodiya sharoitida ko'kartirilgan qaysi bir daraxt nihollari Mo'ynoq sharoitida o'sishi mumkinligi borasida ancha mulohaza yuritildi. Mo'ynoq ob-havosida Qo'qondan olib borilgan o'rik, shaftoli, olcha, olma, behi ko'chatlari u joy iqlimiga mos bo'lgan Kaliforniya teragi singari rivojlana olarmikan? Suv masalasi nima bo'ladi? Xullas, savollar, yechimini kutayotgan muammolar ko'p edi.

Nihoyat institutimizning Qo'qon va Nukus shaharlaridagi filiallari direktorlari bilan suhbatlashib, Mo'ynoqda institut tashabbusi bilan bog' yaratishga qaror qildik. Qo'qonda bu umidbaxsh tashabbus qo'llab-quvvatlanib, ko'chat yig'ishga kirishildi. Fevralning oxirlariga qadar yuz ming tug mevali daraxt ko'chatlari hamda tez o'suvchi Kaliforniya teragi qalamchalari to'plandi. Bu ishda jamoamiz bilan birga qo'qonlik saxovatpesha tadbirkorlar yaqindan ko'mak berishdi. Yuk og'ir, uni olib borish uchun esa katta mashina kerak edi. Masofa 1500 km.dan olis bo'lib, har qanday haydovchi rozi bo'lavermasdi. Shunda Xorazm tomonlardan Qo'qonga guruch olib keladigan yuk mashinalarini kutdik. Nukusda ko'chatlarni institutimizning Nukus filiali direktori shogirdlari bilan kutib olib, zudlik bilan Mo'ynoqqa jo'natdi. Shunda yana bir muammo chiqdi: bu yerda huzur yerlar muddan erimagandi-da. Oxiri tuman hokimi bilan

telefonda gaplashib, yer kavlaydigan traktor topishda yordam so'radim. Katta chuqur qazilib, ko'chatlar ko'mib qo'yildi. Aks holda, sovuq ta'sirida bizning butun mehnatimiz zoe ketar edi. Mart oyi o'rtasida ko'chat ekish ishlari boshlanib ketdi. Bir kuni tuman hokimi "boqqa qanday nom beramiz?", deb so'rab qoldi. "San'at bog'i" yoki "Madaniyat bog'i", desak bo'larmikan, deb javob bersam, bu ko'chatlar juda olisdan – vodiyning so'lim Qo'qonidan keltirilgani uchun "Qo'qon bog'i" deb nom qo'ysak, degan taklifni aytdi. O'shanda ko'ngildan yana bir yorug' niyatlar kechdi, shoyadki, kelgusida "Qo'qon bog'i" atrofida boshqa hududlarimiz nomlarida ham go'zal bog'lar barpo etilsa! Albatta, birinchi yil ancha qiyin kechdi. Men Nukus filialimiz direktori bilan doimo bog'lanib, ko'chatlarimiz ahvolini so'rab turdim. Birinchi yili ko'chatlarning 70 – 80 foizi tutib ketdi. Ne-ne umidlar bilan ekilgan ko'chatlarning barq urib rivojlanishida institutimizning Nukus filiali jamoasining fidoyiligi haqida alohida to'xtalmoq joiz.

O'tgan yilning iyun oyida institutning yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Eldor Shermanov bilan Nukus filialimizga bordik. Keyin Mo'ynoq sari yana yo'lga tushdik. Mo'ynoqqa yaqinlashganimiz sari yuragimda qo'rquv paydo bo'la boshladi. Chunki tevarak-atrofini saksuvulu yig'inlar, yaqindlar egallab olgan bu hududda biz yaratgan bog'ning ahvoli qanday ekan, degan hadik bor edi. Yana besaramjonligim boisi bizga hamroh bo'lib kelayotgan qoraqalpoq televideniyesi xodimlarining borligi edi. Boqqa borsagu bog' abgor holda bo'lsa ... Shunday o'y-xayollar bilan Mo'ynoqqa yaqinlasha boshladik. Filial direktori Amanjo'l Ayapov "Qo'qon bog'i"ga yetib kelganimizni aytganda yana ham sergaklandim. Ulodvan tushibq atrofga olazrak bo'lib qarayman. Ne ko'z bilan ko'rayki, oldimda yashnab turgan mevazorni ko'rdim. Xayriyatki, ko'z oldimda, yam-yashil bo'lib turgan mevazorni ko'rdim. O'rik va olcha daraxtlari uch-to'rt metr bo'y cho'zib, nishona hosil tugibdi. Shaftoli, olma, behi daraxtlari kelgusi yildan mevaga kirishga shay. Daraxtlar orasiga ekilgan beda bel barobar bo'lib, daraxtlarni suvsiz qolmasligi uchun nam saqlashga xizmat qilmoqda. Xushmanzara Qo'qon bog'lariga kirib qolganek sevindim. O'rik mevalaridan uch-to'rt donasini olib, atrofimdagi qozog' ko'z ko'z qildim. Ko'zimdan sevinch yoshlari oqdi. "Qarang, qanday ajoyib bog' bo'libdi! Demak, Mo'ynoqda ham mevazor yaratish mumkin ekan-ku! Hech kim ishonmagan edi. Biz yaratdik!" deb hayqirgim keldi. O'sha pallada mendan batxli inson yo'q edi.

Bog'ni kezar ekanman, suvsiragan daraxtlarni ko'rib, qanday qilib suv keltirishni o'ylayman. Kaliforniya teraklari ham avj olib, ko'kka bo'y cho'zmoqda. Filial direktori Amanjo'l Ayapovdan tuman hokimi bilan ko'rishirishni iltimos qildim. Xayal o'tmay ikki navqiron yigit bizning oldimizga kelishdi. Ulardan biri Mo'ynoq tumani hokimi Yerpolat Yedenbaev, ikkinchisi esa Mo'ynoq tumani hokimining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish va ekologiya masalalarini bo'yicha birinchi o'rinbosari Batirbek Ubbiniyazov ekan. Suhbat asnosida o'z dardimizni hokimga aytdim. Masalaning dolzarbligini yaxshi anglab yetgan hokim besh-o'n kun ichida albatta suv kelishiga va'da berdi. Biz juda xursand bo'ldik. Bizning bog'imizdan 500 metr lar chamasid yiroqdan bolalarning chinqiruv va kulgilari kela boshladi. U yer haqida so'rganimda, Mo'ynoq tumanidagi "Oq kema" bolalar oromgohi ekanligini aytishdi. Demak, kelajakda biz yaratgan bu bog' mevalaridan Mo'ynoqdagi "Oq kema" oromgohi bolalari huzur qilib o'z tashnaliklarini qondirishlari mumkin ekan.

2021-yilning 6-iyun kuni Nukus filiali direktori bilan telefon orqali ancha gaplashdim. Suhbat asnosida kinolarda ko'rganimdek, yangi ekilgan ko'chatlar uchun suv bakkalalarini ters bog'lab, qopqog'ini igna bilan teshgan holda tomchilatib sug'orishni taklif etdim, toki hokim suv kelturgunga qadar. Bu taklifim ma'qul bo'ldi. 7-iyun kuni Nukusdan rasmi xabar keldi: 200 dona bakkalaga suvga to'lirilib Mo'ynoqqa olib ketildi va ko'chatlar tomchilatib sug'orila boshlandi, deb. Suratlarini ko'rib sevindim. Axir, daraxtlar ham suvsizlikdan nola chekadi, insonga iltijo qiladi. Suv bersangiz u ham haqingizga duo qiladi. Uning savobi katta bo'ladi, deb o'qiganim, eshitganim bor edi. Menimcha, haqiqatan ham shunday. Daraxtning oyog'i yo'qki, o'zi borib suv ichib kelsa! Nukus filialimiz jamoasining bunday saxovati bizni sevintirdi. Demak, saxovat, himmat bu taraflarda ham bor ekan.

Shularni o'ylab, qilgan barcha mehnat va chekkan mashaqqatlarimizning huzurini tuydim. Bundan ortiq rohatbaxsh tuyg'u bormi?! Agar inson shijoat, bilim, aql bilan aniq maqsadni ko'zlab harakat qilsa, albatta, natijaga erishishi mumkinligiga bundan ortiq dalil bormi?! Bu dunyoda bundan ham ortiq rohatbaxsh tuyg'u bormi?! Yaratgandan so'raylik, hammamizning ortimizdan ana shunday gullab turgan bog'lar qolsin!

“YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” KITOBINI VA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR


Xususan, “Ma’naviy taraqqiyot” bo‘limida “Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbol”, “Yangi ma’naviy makonni yaratish borasida vazifalar”, “Ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi”, “Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish”, “Ma’rifatli jamiyat sari”, “Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi” mavzularida nafaqat ma’naviyat, balki madaniyat va san’at sohasi uchun ham yangidan yangi vazifalar, istiqbolli siyosiy-ma’rifiy ishlar keng yoritilgan. Kitob har bir o‘quvchida yangi O‘zbekistonning zamonaviy, demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belgilab olingan strategik yo‘l to‘g‘risida umumiy, yaxlit tasavvur uyg‘otadi. Prezidentimizning mazkur asari – Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda milliy madaniyatimiz va san’atimizning eng zarur omili bo‘lib qolaveradi.

Bugun har bir yosh qalbida Renessans sari dadil odimlab borayotgan yangi O‘zbekistonga munosib bo‘lish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini shakllantirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi jamiyatning navqiron avlodi nafaqat puxta bilimli, yuksak salohiyatli, balki o‘z taqdirini mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog‘lab, ijtimoiy faollikni munosib namoyon etishi muhimdir.

Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Uchinchi Renessans sari ildam qadamlar bilan borayotgan ijod ahlining ma’naviyatini yanada yuksaltirishga keng yo‘l ochadi. “Taraqqiyot strategiyasi” ijtimoiy-falsafiy ma’noda muayyan jamiyat yoki davlat rivojining yangi bosqichga ko‘tarilishini belgilab beradigan omillar va tamoyillar, barcha sohalardagi islohotlar mazmun-mohiyatini ifodalaydigan, hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarining bir butun tizim sifatida yangilanishini, dinamik ulushi paradigma yaratadi. O‘zgarish jarayonini aks ettiradigan serma’no tushunchadir. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy jihat – siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va ma’naviy yangilanishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar hamda hayotiy mezonlarning yuksak samaradorligiga erishish, eski tartiblar va tamoyillar o‘rniga yangi qadriyatlar tizimi, zamonaviy yondashuvlarning vujudga kelishidir.

Demak, mazkur asarni umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida siyosiy-ma’naviy tarbiya jarayonlarida hamda aholi orasida tashkil etiladigan madaniy tadbirlarda keng targ‘ib qilishimiz kerak. Shunda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini hamda ta’sirchanligini oshirishga, milliy madaniyatimiz, qadriyat va an’alarimizni ma’nau yuksaltirishga katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Qolaversa, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi – yoshlar nigohida”, “Ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi”, “Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish”, “Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi” “Ma’naviy taraqqiyot – yorug‘ kelajagimiz”, “Jaholatga qarshi – ma’rifat”, “Yangi O‘zbekiston – yetuk ma’naviyatli jamiyat”, “Erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurt”, “Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbol”, “Yangi ma’naviy makonni yaratish borasida vazifalar”, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi – mushtarak madaniyatimiz va saodatli san’atimiz kafolatidir” singari turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, ziyolilar va san’at sohasi vakillari bilan uchrashuv kechalarini amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelayotganini ham e’tirof etishimiz lozim.

Asarning ahamiyatli jihati shundaki, unda buyuk ajdodlarimizning jahon madaniy merosiga qo‘shgan hissalaridan tortib, zamonaviy IT-markazlargacha keng yoritilganidir. Kitobdan madaniy-ma’rifiy ishlarda qo‘llanish



hududlarda Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekistonning mazmun-mohiyatini oshirib, bu islohotlarni xalqning qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshiradi va tashabbuskor aholi mafkurasi shakllanishiga zamin yaratadi.

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”ni mutolaa qilish orqali Vatanimiz oldidagi burch va mas’uliyatni teran his qilib, shijoat bilan harakatga tushish, mamlakat ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shish ishtiyqi paydo bo‘ladi. Aslida, har birimiz o‘z sohamiz, kasbimiz bilan yurtimiz buguni va ertasi uchun kamarbasta bo‘lmog‘imiz lozim. Yangi O‘zbekiston qiyofasini yaratish, samarali natijalarni mustahkamlash borasidagi islohotlarning har bir bosqichida faol ishtirokchi hamda ko‘makchi bo‘lishimiz zarur. Albatta, bu zimmamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi. O‘z faoliyatimizga nisbatan tanqidiy va tahliliy nazar bilan qarashni, yanada o‘z ustimizda ishlashni, yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surishni, har bir sohada innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundaygina ko‘zlangan yuksak maqsadlarga erishamiz, Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni qurishga qodir bo‘lamiz.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekiston yangilikka, yangicha dunyoqarashga intilib yashashida madaniyat va san’at sohasi vakillari faoliyatlarida samarali natijalarga erishib, ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishga intilishlari kerak. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz”.

Shunday ekan, buyuk madaniyat yaratgan xalq sifatida azmu shijoatimizni, tariximizning yangi sahifasidan o‘rin egallagan Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobining mohiyatini xalqimiz orasida keng targ‘ib qilishda madaniyat va san’at sohasi vakillarini yanada faol bo‘lishiga chaqiramiz.

Mo‘minmirzo XOLMO‘MINOV,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasi o‘qituvchisi
Asilbek QOLQANATOV,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasi “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti mutaxassisligi” 1-bosqich magistranti

AVLONIY VA TEATR

Abdulla Avloniy XX asr bo‘lag‘asida yangi zamon o‘zbek madaniyatining eng yirik namoyandasi sifatida maydonga chiqdi. U 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to‘quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. O‘qchidagi eski maktabda, so‘ng madrasada o‘qiydi. Mustaqil mutolaa bilan shug‘ullangan. Arab, fors, rus tillarini o‘rgangan.

1904-yilda Mirobodda, so‘ngra Degrezlikda yangi usulda, yangicha maktab ochib, o‘zi dars berdi, o‘quvchilar uchun darsliklar yozgan. Taraqqiychilar bilan sheriklikda shirkatlar tuzib, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Osioy”, “Turon” gazetalarini ta’sis qilgan. 1918-yilda Turkiston Sho‘rolar hukumatining birinchi gazetasi “Ishirokiy”ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo‘ldi.

O‘sha davrda o‘zbek milliy dramaturgiyasi xazinasiga o‘zining “Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1915) komediyalari, 1914 – 1917-yillarda yozgan “Biz va Siz”, “Portugaliya inqilobi”, “Ikki sevgi” kabi davr

muammolari aks etgan asarlari bilan munosib hissa qo‘shdi. 1913-yilda “Turon” teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan.

O‘zbek dramaturgiyasining paydo bo‘lishi va xalq orasida unga mehr uyg‘otishda trupa va uning rahbari Avloniy muhim rol o‘ynadi. “Advokatlik osonmi?” komediyasida advokat Davronbek orqali Turkistonda mavjud bo‘lgan huquqsizlikni hamda dunyo voqealaridan bexabarlikni fosh etadi. Shu bilan bir qatorda qimorbozlar obrazi orqali xalqning ma’naviy turmushining tuban bir holga kelib qolganligini zo‘r mahorat bilan ko‘rsatib berdi. Mazkur asar mavzu va personajlarning ko‘proq



badiiy to‘qima yo‘li bilan tasvirlanishi, shu davrdagi boshqa dramalarga xos pandu nasihatning imkon qadar chegaralanganligi pyesaning o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Asar bosh qahramoni advokat Davronbekning so‘zlarida nasihat va va’xonlik mavjud bo‘lsada, u umrida ko‘p muammolarga duch kelgan, hayotiy muammolarni yengib o‘tishga intilgan, baxtli hayot uchun kurashga otlangan inson sifatida namoyon bo‘ldi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabitir” degan maqol bejizga aytilmagan. Chunki inson hayotining aynan yoshlik davrida o‘rganilgan har qanday bilim va ko‘nikma u ulg‘ayganidan keyin ham erishadigan barcha yutuqlarining kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Qadimdan olim va donishmandlar yurti hisoblangan zaminimizning farzandlarini bugungi kundagi ilm-fan, texnika, san’at, sport sohasida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari yildan yilga ortib bormoqda. Davlatimiz tomonidan yoshlarning bilim cho‘qqilarini egallashi uchun yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar ana shu yutuqlarning poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

YOSH OLIMLAR XALQARO KONGRESSIDA

Xususan, yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularning orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish, ilg‘or tashabbus va g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda yoshlar siyosati xalqaro umume’tirof etilgan xalqaro huquq va normalar bilan hamohang tarzda olib borilmoqda. Yoshlarni intellektual, ma’naviy va jismoniy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Yurtimizda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiladigan yoshlarga yurt ravnaqini ta’minlovchi kuch sifatida ishonch bildirilmoqda.

Darhaqiqat, shu o‘rinda aytish lozimki, inson ruhiyati cheksizlikni, cheksizlikdagi sokinlik va betakrorlikni istaydi hamisha. Bunga erishish maqsadida esa ilm olamiga murojaat qiladi. Jamiyatning muntazam rivojlanib borishini yoshlarning tarbiyasi va bilim darajasi ta’minlab beradi. Ta’limning har qanday nazariyasi hamda amaliyoti oldida, eng avvalo, inson shaxsi turadi.

Men bolaligidan adabiyotga, musiqa, kitob o‘qishga umumiy olganda ijodiy faoliyatga qiziqardim. Shu boisdur, balki kasbiy hayotim ham madaniyat, san’atga bog‘langandir. Atrofimizdagi olam, butun dunyo-yu borliq mo‘jiza aslida. Mo‘jizaviy dunyoda qilgan orzularimizning ro‘yobini ko‘rish esa kishini yanada olg‘a borishga undaydi.

Ilm olish butun umr davom etadigan faoliyat bo‘lib, cheksiz ummon kabitir. Uning asl afzalligini anglash uchun u bilan ko‘proq va puxta shug‘ullanmoq kerak. Ilmning afzalligi shularda ko‘rinadi-ki, u ko‘paygani sayin o‘zingiz va atrofingizdagi olamni yaxshiroq taniy boshlaysiz. Bugun yoshlarimizga o‘z ustida ishlashi, bilim olishi, fozil, barkamol inson bo‘lib shakllanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda erishilgan yutuqlar, ta’lim tizimini isloh qilish yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar hamda fidoyi ustozlar yuksak e’tibor tahsinga loyiqdir. Zero, ilmning afzalligini sizni hech narsangiz qolmaganida ham tark etmasligi, ishlatilgani sayin ko‘payib borishi va albatta oldingizga qo‘ygan orzularingizga ertaroq yetishishingizga ko‘maklashishidan bilsangiz bo‘ladi. Alisher Navoiy bobomizning “Ulug‘lik xushboyliliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari” nomli asarlarida ilmning ahamiyati haqida quyidagi jumlar keltiriladi: Ilm – biz ko‘p ishlatadigan atama. Ammo chuqur va nozik mazmunga ega ekanini Abu Tohir al-Abhariy bayonida yozadi: “Andin so‘rdilarki: Haqiqat nedir? Dedikim: Barchasi ilmdu. Dedilarki: Ilm nedir? Dedikim: Barchasi haqiqatdur”. Ya’ni har qanday haqiqat – ilm bilan isbotlanishi va har qanday ilm – haqiqatga tayanishidir.

Yangi O‘zbekistonda olimlarimizning ilm bilan shug‘ullanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan ham bunga katta e’tibor qaratilib, yuksak taraqqiyotga ilm orqali erishish ko‘zda tutilyapti. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm kerak”- deb ta’kidlaganlarini bejiz emas.

Inson hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar ba’zan uning turg‘un holatdagi qarashlarini o‘zgartirishga turtki bo‘ladi. Atrofimizdagi olam, butun dunyo-yu borliq mo‘jiza aslida. Mo‘jizaviy dunyoda qilgan orzularimizning ro‘yobini ko‘rish esa kishini yanada olg‘a borishga undaydi.

Jumladan, joriy yilning 23 – 24-dekabr kunlari Turkiya Respublikasining Anqara shahrida joylashgan Turkiya Respublikasi Millat kutubxonasida Turk dunyosi yosh tadqiqotchilar ittifoqining “Turk dunyosida Oliy ta’lim kelajagi” mavzusida bo‘lib o‘tgan Xalqaro kongressda yosh tadqiqotchi sifatida qatnashdim.

Turkiya yosh tadqiqotchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan xalqaro kongressda 15 davlatdan 80 nafar yosh olimlar ishtirok etib, qardosh xalqlarning ta’lim tizimi, imkoniyatlar borasida so‘z yuritdik.

Kongress mobaynida Yosh tadqiqotchilar Uyushmasi rahbari Yunus Kacabyikning “Kongress Turkiya va Turk dunyosida ta’lim faoliyatlarini davom ettirayotgan universitetlar va yosh tadqiqotchilarni mushtarak bir intellektual atrofida birlashtirib, o‘zaro ta’sir va hamkorlikni oshirish maqsadida tashkil etilganini” ta’kidlab o‘tganining nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini angladim. Bunday katta miqyosda o‘tkazilayotgan kongressning o‘z oldiga asosiy vazifasi nima deb iborat edi? Shunchaki kelib ishtirok etishmi, yo‘q albatta. Kongressga tashrif buyurgan yosh tadqiqotchilarning maqsadi aniq. O‘z yurtida oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, yangiliklar va innovatsiyalar haqida ma’lumot berib, o‘zlari uchun ham xuddi shunday ma’lumotlarni qardosh yosh olimlardan bilib olish. Kongress davomida bahs va munozarali suhbatlar ham yetarlicha bo‘ldi, yosh olimlar va turli soha professorlari bilan ilmiy suhbatlar tashkilatildi. Tadqiqotchilar tomonidan berilgan ba’zi savollarga tashrif buyurgan professorlar tomonidan tahliliy javoblar berildi. Mana shunday ilmiy doirada ishtirok etib, ko‘plab bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ldim. Tengdoshlarimning ilmga chanqoqligi, zamonaviy hamda kreativ fikrlashi meni yanada ilhomlantirdi. Yurtimizni jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayoniga o‘z hissamni qo‘shish buni amalga oshirishda esa zamonaviy bilimlarni egallash naqadar muhim ekanligini yanada chuqur angladim. Zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Hozirgi kunda islohotlar davrida yashayapmiz, fikrimcha yangi O‘zbekistonni yangi tafakkur bilangina qura olamiz. Buning uchun har birimiz o‘z ustimizda tinimsiz ishlab samarali mehnat qilishimiz dardkor!

Men xalqaro kongressda “O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida madaniyat va san’atning o‘rni” mavzusida ma’ruza qilib, mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasiga qaratilayotgan e’tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar borasida so‘z yuritdim. Ayniqsa, yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning ham ilmiy ham ijodiy faoliyatlarini uchun barcha shart-sharoitlar mavjud ekanligi ularning xorijiy oliy ta’lim muassasalarini bilan hamkorliklari haqida so‘z yuritdim. Ijodkor yoshlarning sifatli bilim olishi va kelajakda vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha olishlari uchun muhtaram prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘zlar ekanman, ularning “Biz tashqi siyosatimizda uzoq va yaqin qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik aloqalarini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, barcha sohalarda o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantiramiz”, – deya aytgan so‘zlarini ko‘z oldimdan o‘tkazdim va buning asl mohiyatini angladim.

Biz yosh tadqiqotchilar bu kabi hamkorliklar barqaror bo‘lishini bu orqali esa turk dunyosidagi tengdoshlarimiz bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlab, ilmiy va ijodiy tajriba almashish tarafdorimiz!

Tengdoshlarimga shuni aytmoqchiman, mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyat va sharoitdan unumli foydalanishimiz kerak, zero imkoniyat va sharoit bizning ertamiz, kelajagimizga xizmat qilsin.

Kamoliddin UMAROV,

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tayanch doktoranti



AVLONIY VA TEATR

3 Asarda Davronbekka ko'mak istab kelgan kimsalarning har biri o'z dardlariga malham istaydilar va buni Davronbekdan ololmagach, alamlariga chiday olmay "epolmas ekansa, advokatlik qilib nima qilarding?" – ma'nosida, unga "Advokatlik osonmi?" savoli bilan ta'na qilib chiqib ketadilar. Muallif bu voqealar orqali qonun ustivorligi bo'lmagan mamlakatda hech qanday rivojlanish va huquq erkinliklari bo'lmasligini amalda isbotlab beradi.

Abdulla Avloniy shakllanish yo'liga kirayotgan yangi o'zbek teatrining aktyorlik va rejissorlik san'atini boshlab beruvchilardan biri hisoblanadi. "Padarkush" spektakli bilan ochilgan "Turon" teatrining birinchi spektaklida Abdulla Avloniy bosh qahramon Boy rolini ijro etdi.

O'sha zamon matbuotining ta'kidlashi va tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, Abdulla Avloniy o'z rolini katta mahorat bilan ijro etgan va shundan e'tiboran boylar va katta yoshdagi xarakterli obrazlarni talqin etishga ixtisoslasha borgan. Masalan, "Turon" teatri amaliy faoliyat boshlagan 1914-yilning dekabr oyida sahna yuzini ko'rgan "To'y" spektaklida Abdulla Avloniy asarning bosh qahramon Olimboy rolini katta muvaffaqiyat bilan talqin etadi. Bu haqda "Sadoyi Turkiston" zavqu shavq va tahsin hissi bilan yozadi: "Abdulla Avloniy Olimboy obrazi qanday bo'lishi lozim bo'lsa, xuddi uni shunday mujassam o'laroq ko'z oldimizga keltirib qo'yadi. Avloniyning sahnada ko'rsatgan mahorat va iste'dodiga tashakkur qilmasdan o'tmoqni vijdon qabul etmaydi" Abdulla Avloniyning 1915-yilda yozilgan "Pinak" bir pardali komediyasida giyohvandlik va qimorbozlikni Turkistonda mavjud illat sifatida fosh etar ekan,

u jaholat, bekorchilik, ota-onalar mas'uliyatsizligining oqibati ekanini ta'kidlaydi, o'qish, o'qitish, bilimga intilish g'oyalari ilgari suradi.

1910–1916-yillar orasida bir nechta sahna asarlarini o'zbekchaga o'girdi va o'zi ularni sahnalashtirdi. Avloniyning dramatik asarlari Toshkentda, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Ularda XX asrning 20-yillari boshlaridagi xalq hayoti keng ko'lamda tasvirlangan. "Ikki sevgi" asarida Turkiyada yuz bergan "Yosh turklar" inqilobi ifoda etilgan bo'lsa, "Biz va Siz" pyesasida XX asr boshlaridagi Turkistonning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan eskilik va yangilik borasidagi kurashi aniq taqdirlar misolida yoritildi, "Portugaliya inqilobi" da esa monarxiyaga qarshi kurash bayrog'i ostida kechgan 1910-yilgi Portugaliya inqilobi qalanga olindi.

"Biz va Siz" asarida eski turmushdan qutilish yo'lida ko'rilgan choralariga ochiq va keskin kurash yo'li bilan aniqlik kiritmoqchi bo'ladi. "Biz" – bu Turkistonda milliy uyg'onish davrida vujudga kelgan ko'zi ochiq, dunyoga yangi nazar bilan qaraydigan avlod. "Siz" – inson erki, orzu istaklarini o'z domiga tortib eski turmush girdobiga g'arq bo'lgan kishilar. Muallif mana shu ikki dunyo, ikki qutb kishilarini bir oila o'rtasiga jamlab, ota-ona va farzandlarning dunyoqarashi, intilishlari orqali keng yoritadi.

Abdulla Avloniy o'sha davrda o'z atrofiga ajoyib hamkorlarni jamlay oldi. Mannon Uyg'ur uning truppasida tarbiya topdi. Truppa doimiy ravishda Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Sidqiy Ruhullo bilan hamkorlikda faoliyat yuritdi. Truppa Hamzaning "Zaharli hayot", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" kabi o'zbek dramaturgiyasining eng

nodir namunalari hamda ozarbayjon dramaturglarining "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "Man o'lmissham", "Layli va Majnun", "Asli va karam" asarlarini o'zbekchaga o'girdi, o'zi sahnalashtiradi hamda "Layli va Majnun" da Mallu', "Baxtsiz kuyov" da Fayziyov, "To'y" da Aliboy, "Padarkush" da Boy rolini ijro etgan.

"Turon" teatri repertuarini milliy, qardosh va dunyo dramaturgiyasi asosiga qo'yishning bosh tashabbuskorlaridan biri ham Abdulla Avloniydir. "Qotili karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "O'liklar" singari pyesalarni tarjima qiladi va teatrdan sahnalashtirilishiga bosh-qosh bo'ladi.

Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq darsligi"da tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingani va ayniqsa "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmaslik millatning ruhini yo'qotmaktur" degan hikmati bugun ham o'z qimmatini yo'qotgan emas, balki dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Abdulla Avloniy ijodini o'rganmasdan XX asr 20-yillarigacha bo'lgan davrga to'g'ri baho berish qiyin.

Abdulla Avloniyning yangi o'zbek teatrlari yaratuvchilaridan biri-tashkilochi, dramaturg, aktyor, rejissor, xalqimizning har qancha ardoq va minnatdorchiligiga loyiq ma'rifatparvar ijodkoridir, deb xulosa qilishimizga imkon beradi. Abdulla Avloniy o'zbek teatrlarining asoschilaridan biri sifatidagi faoliyati juda boy va qadrlidi.

**Faxriddin ABDUVOHIDOV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrasidotsenti v.b.**

TALABA IJODIDAN

Qo'g'irchoq teatrlari

Bugungi kunda teatrlar faoliyati respublikamizda sezilarli darajada salmog'i va ko'lami oshdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Qizg'in faoliyat yuritib kelayotgan teatrlardan qo'g'irchoq teatrlarining erishayotgan yutuqlari va bolajonlarni xushnud etayotganligini alohida ta'kidlash o'rinni. Hozirgi vaqtda poytaxtimizda va respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida qo'g'irchoq teatrlari o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Yurtimizda qo'g'irchoq teatrlari qadimdan taraqqiy etgan bo'lib, uning "chodir xayol", "chodir jamol" va "fonus xayol" turlari faoliyat ko'rsatib kelgan. Ayniqsa, "fonus xayol" ya'ni soya qo'g'irchoq teatri qadimdan keng tarqalgan. Qo'g'irchoqbozlar musiqadan yaxshi xabardor bo'lganlar. Musiqa badiiy bezak sifatida va qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Har bir sohaning qiziqarli, o'ziga xos jihati va albatta murakkab tomonlari ham bo'ladi. Bu sohaning ham o'ziga yarasha mehnatlari, murakkabliklari bo'lib, o'z kasbini sevgan soha vakillari bolajonlar uchun sevimli spektakllarni sahnalashtirib kelmoqdalar. Qo'g'irchoq teatrlarining turlari qiziqarli bo'lib, ular soyali qo'g'irchoq teatri, qo'l qo'g'irchoq teatri, stol qo'g'irchoq teatri, marionetka va barmoqli qo'g'irchoq teatrlaridir.

Qo'g'irchoq teatrlarining asosan quyidagi chavandozlar qo'g'irchoq teatri (qo'lqop), pastdan boshqariladigan, yuqoridan iplar, tayoqlar yoki simlar yordamida boshqariladigan qo'g'irchoqlar teatri o'rta qo'g'irchoqlar teatri (yuqori va pastki emas) qo'g'irchoqlar darajasida boshqariladigan turlarini ham aytish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy este'tik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositalaridan samarali foydalanish bolalarning iqtidori, borliq haqidagi tasavvurlarini hamda dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun muhim omil bo'ladi. Bolajonlarning qo'g'irchoq teatri orqali axloqiy-estetik didi shakllanishi bu – bolalarda ezgulik haqidagi bilimlar, hayot voqeligi, buyumlar va ularning rang-barangligini, o'zini tuta bilish, muloqotga kirishuvchanlik, ezgulik va yovuzlikni farqlash, o'z-o'ziga baho berish kabi fazilatlarini anglatuvchi vosita ekanligi muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Qo'g'irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo'ladi. Chunki jihozlar qancha kam bo'lsa, shuncha yaxshi, sababi qo'g'irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va osonlik yaratiladi. Qo'g'irchoq teatrida sahna jihozlari va butaforlar soxta bo'lmaydi, balki aktyorning qo'lida qo'g'irchoq ham xil matoldan yasalgan jonsiz personajdir.

Bolalar spektaklini tomosha qilishganda yorqin va kuchli tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bolalar tasavvurini rivojlantirish va unga tushuntira olish uchun tabiat va jonzoqlarning xarakterini, ularning munosabatini, plastikasini, insonlarning xulq atvorini, hayotda tutgan o'rni va mavqega qarab o'zgarishini kuzatib, bu bilimlardan dramaturg yozgan pyesasida foydalanishi kerak. Qo'g'irchoq teatrida bolalar ruhiyati e'tiborga olinib, har xil obrazlar yaratiladi. Demak, qo'g'irchoq teatri aktyorining faqat tasavvuri emas, ajoyib fantaziyasi ham bo'lishi kerak. Shundaygina qo'g'irchoq teatrlari bolajonlarimizning ma'naviyatini shakllanishida, borliqni teran anglashga, yaxshiliklarga undovchi muhim vosita bo'lishiga ishonchimiz komil bo'ladi.

Mahliyo HABIBULLAYEVA,

**Teatr san'ati fakulteti "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi" yo'nalishi
2-bosqich talabasi**

TIBBIYOTNING QIROLINI TARBIYALAGAN UCH USTOZ

Bir kuni onasi to'qqiz yoshga to'lgan ibn Sinoni bozorga yuboradi. U xaridor kutib o'tirgan baqqol Mahmud Massohning do'koniga keladi. Onasi aytgan mahsulotlarni xarid qilish davomida baqqol bilan suhbatlashadi.

Mahmud Massoh yosh ibn Sinodan o'qish va yozishni bilish-bilmasligini so'raydi. Bolakay savodini chiqqanini, Qur'onni yod olganini aytadi. Uning javobidan ko'ngli ko'tarilgan Massoh ilmi riyoziy va handasa ilmlari haqida so'raydi. Ammo ibn Sino ko'zlarini chaqnaq, domlasi bunday ilmlarni o'qitmagandegini aytadi.

Shundan so'ng yosh Husayn baqqolning yoniga tez-tez boradigan bo'ladi. Undan egru chiziq, siniq chiziq ilmlarini qunt bilan o'rgana boshlaydi. Hovlining bir burchagidagi nimqorong'i xonaga kirib, hisob chiqarish, turli shakllarni chizish bilan mashg'ul bo'ladi. Devonga erta ketib, kech qaytadigan otasi o'g'lining nima bilan shug'ullanayotganidan bexabar edi. Bir kuni ishdan ertaroq qaytgan Abdulloh o'g'li Husaynning nimalarnidir chizib o'tirganini payqaydi va qo'lidan qog'ozni olib, uni yoruqqa solib ko'radi. Farzandidan ustozi haqida eshitgach, Mahmud Massoh bilan gaplashib, uni uyiga taklif etadi. U ibn Sinoga ilmi riyoziy va handasadan dars berishni boshlaydi. Keksa baqqol yosh shogirdining zehni qoyil qolar, shu sababdan uni zavq bilan o'qitar edi. Oradan ikki yil o'tmay, Husayn ustozi bilan bilganlarini o'rganib oladi.

Bir kuni baqqol uy egasiga o'g'lining ba'zi savollariga javob topolmay qolayotganini, bilganlarining hammasini o'rgatganini aytadi. Bundan buyon bolaga fikri munavvar bir muallim zarurligini e'tirof etib, Buxoroga kelgan yosh olim Abu Abdulloh Notiliyni tavsiya qiladi. Ertasi kuni Mahmud Massoh baland bo'yli, qomati

kelishgan, ko'rinishda yoshga o'xshasa ham sochlariga oq oralagan, ko'zlarining atrofini ajin bosgan Abu Abdulloh Notiliyni boshlab keladi.

Notiliy boshiga baxmal do'ppi, egniga qisqa adras to'n kiygan, ikki beti qip-qizil, novchagina, qirraburun shogirdiga sinovchan nazar tashlab, zehni ravshan ekanligi ko'zlaridan aks etib turganini aytadi. Abu Abdulloh Notiliy el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur edi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustoizidan ham o'zib ketadi. Notiliy Husaynning tabobatga doir kitoblarni o'qiyotgani, uni bir tabibga shogird qilib berish zarurligini gapiradi. Abdulloh ibn Hasan somoniy amirlar orasida e'tibor qozongan tabib Abu Mansur Qamariyga o'g'li Husaynga ustozlik qilishni, tibbiy amaliyni o'rgatishni iltimos qiladi.

Tabib uning dori-darmonlarga qiziqishini tezda anglab, agar yonida yurib tibbiy amaliyni o'rgansa, kechalari kitoblarni mutolaa qilsa, maqsadiga yetishini ta'kidlaydi. Mansur Qamariy izni bilan o'sha kuni Husayn tokchadagi dori-darmonlarni ko'zdan kechirib chiqadi. Husayn tomir urishidan odamning ichki holatini biladigan yangi ustoizga hurmat aralash hayrat bilan qarab, uning kasb-hunarini egallab olishga ahd qiladi.

Anvar QOBILOV tayyorladi

DENGIZ QO'SHIG'I

*Chorlamogda dengiz shovuri,
Shivirlaydi shafaqqa boqib.
Chalinmasdan kuzning tamburi,
To'lqin qoldi nedan tutoqib?*

*Qumliklarga urilar sokin,
Chig'anoqlar sochib ustiga.
Tuyg'u kabi ko'pirar oqin,
Oshiq qilar nogoh o'ziga.*

*Kemalarning qanoti baland,
Orzuimdek viqorli go'yo.
Xayolimda qilgan xursand,
Dengiz bo'lib tuyilar dunyo.*

*To'lqin bo'lib jo'shdim har safar,
Nigohlaring qo'rgan ko'p alday.
Ko'zlaringga cho'kib ketsam gar,
Ey yor meni yurmagin izlab...*

KO'NGIL...

*Hayotimni mazmunga burkab,
Kelding bugun azizim qutlab.
Bir qalqildi, nogoh qaltirab,
Ko'ngil,
Ko'ngil...*

*Baxtga cho'mdi munavvar olam,
Qo'llarimda tebrandi qalam,
Senga quvvat bersin hay daldam,
Ko'ngil,
Ko'ngil...*

*Har vujudda olasan nafas,
Har insonning ko'ksida qafas,
Har kimsaga keraksan xullas,
Ko'ngil,
Ko'ngil...*

*Sen kelding g'ururim osmon,
Tanga kirmish nogahon darmon,
Hayotimda hech qolmadi armon,
Ko'ngil,
Ko'ngil...*

*Tongdan toza oppoq libosim,
Men baxtiliman yo'q e'tirozim,
Sevgilimga aylayin rozim,
Ko'ngil,
Ko'ngil...*



Zilolabonu Xoliqova – 1987-yil Jizzax shahrida san'atkorlar oilasida dunyoga kelgan. 21-umumta'lim maktabning 6-sinfini tamomlab, Jizzax davlat san'at bilim yurtiga (San'at kolleji) ga Xoreografiya "Milliy raqs" bo'limga imtihonsiz qabul qilingan. San'at kollejni 2004-yilda bitirgan. 9 yoshidan she'r yoza boshlagan. Hozirgi kunda uning "Unutmoq osonmas", "Layli qo'shig'i", "Gavharim bor", "Ko'ngilga yo'li", "Sukunat Malikasi", "Yolg'iz qush" kabi nazmiy to'plamlari nashr etilgan. Zilolabonu Xalqaro konferensiya va sammitlari ishtirokchisi va g'olibasi hisoblanadi. O'nlab Xalqaro va respublika almanax, antologiya to'plamlarida she'rlari kiritilgan hamda ushbu to'plamlardagi xizmatlari uchun taqdirlangan. O'z tashabbusi bilan "Iste'dod uchunlari", "Mehrigiyo", "Baxt qo'ng'irog'i" nomli almanax to'plamlarini nashrdan chiqartirgan. 2017-yilda Turkiyaning Istanbul, Elazig, Osmaniya, Amasya, Anqara, Konya shaharlarida bo'lib o'tgan festivallarda ishtiroki uchun taqdirlangan. 2019-yil Hindistonda Chandigarh shahrida bo'lib o'tgan "Oltin ko'priki" antologiyasi taqdimotida faol ishtiroki uchun taqdirlangan. 2019-yil Ozarbayjon Baku shahrida bo'lib o'tgan "Buta-4" almanaxining taqdimotida O'zbekistondan vakil hamda yordamchi muharrir sifatida ishtirok etib, taqdirlangan. Zilolabonu Xoliqova bugungi kunda "Ohu liderlari" iste'dodli yoshlar klubini mustaqil tarzda yuritib rahbarlik qilib kelmoqda. Taekvondo bo'yicha I-dan qora belbog' sohibasi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Kar va soqovlar jamiyati a'zosi.

UMID

*Tong otar!
hammasi o'zgacha,
Shukrona aytadi bu zamon.
Yigirma to'rt soat uyquda,
O'zgarib ketgandek hur zamon.*

*Barisi boshlanar qaytadan,
Esnoqlar, charchoqlar qochadi.
Oq ko'yak kiygan sollarib,
Pok UMID dilga nur sochadi.*

UMR KO'RINISHI

*Qorayib, bujmaygan yuzlari,
Selkillab qolgandek ajinlar.
Ammo zo'r yonadi ko'zlari,
Ko'ngilga nur bo'lib sochilar.*

*Jo'shqinlik kirgandek qonimga,
bir ikki, besh, olti, o'n, o'n, bir!
Ruhimni qaytarib tanimga,
Salomon aytadi bu Umr!*

Zilolabonu XOLIQOVA

Muassis:

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti**

**Bosh muharrir
Eldor SHERMANOV**

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YOLDOSHEV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3,
hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 28.02.2022 yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yatga olingan.

Gazeta har o'nying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'Al mahallasi, Markaz – 1.